

SHARQ – G‘ARB XALQARO TRANSPORT KORIDORINING GEOIQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Zumrat Talatovna GAIBNAZAROVA

professor

iqtisodiyot fanlari doktori

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: zumrat59@rambler.ru

Annotatsiya

Maqolada Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy salohiyatini oshirishning innovatsion mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish, logistika xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalar, jumladan, sun‘iy intellekt, Big Data, IoT va blokcheyn yechimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, koridorning tranzit jozibadorligini oshirish, yuk oqimlarini optimallashtirish, bojxona va chegara tartib-taomillarini raqamlashtirish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining raqobatbardoshligini oshirish, mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash va xalqaro savdo hajmini kengaytirishga xizmat qiluvchi innovatsion taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: Sharq–G‘arb xalqaro transport koridori, geoiqtisodiyot, transport infratuzilmasi, logistika, raqamlashtirish, multimodal tashuvlar, innovatsiyalar, sun‘iy intellekt, blokcheyn, tranzit salohiyati.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ГЕОЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА МЕЖДУНАРОДНОГО ТРАНСПОРТНОГО КОРИДОРА «ВОСТОК-ЗАПАД»

Зумрат Талатовна ГАИБНАЗАРОВА

профессор

доктор экономических наук

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкент, Узбекистан

e-mail: zumrat59@rambler.ru

Аннотация

В данной статье исследуются инновационные механизмы повышения геоэкономического потенциала международного транспортного коридора «Восток-Запад». Особое внимание уделено модернизации транспортно-логистической инфраструктуры, развитию мультимодальных перевозок и повышению качества логистических услуг в соответствии с международными стандартами. Рассматриваются вопросы внедрения цифровых технологий, включая искусственный интеллект (AI), Big Data, Интернет вещей (IoT) и блокчейн, направленных на повышение

эффективности и устойчивости транспортно-логистических процессов. Также анализируется роль цифровизации таможенных процедур, оптимизации пограничных операций и развития государственно-частного партнерства в повышении транзитной привлекательности и укреплении региональной взаимосвязанности. По результатам исследования предложены практические рекомендации и инновационные подходы, направленные на повышение конкурентоспособности международного транспортного коридора «Восток-Запад», развитие региональной экономической интеграции и расширение международной торговли.

Ключевые слова: международный транспортный коридор «Восток-Запад», геоэкономика, транспортная инфраструктура, логистика, цифровизация, мультимодальные перевозки, инновации, искусственный интеллект, блокчейн, транзитный потенциал.

Bugungi kunda global iqtisodiyotning jadal integratsiyalashuvi, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda geosiyosiy o'zgarishlar xalqaro transport koridorlarining strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, Sharq-G'arb xalqaro transport koridori Yevropa va Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi yuk tashish tizimida muhim geoiqtisodiy platformaga aylanib, xalqaro logistika zanjirlarining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin egallamoqda. Mazkur koridor orqali yuklarni yetkazib berish muddatini qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish hamda yangi tranzit imkoniyatlarini yaratish xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish va xalqaro transport yo'laklaridan samarali foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev transport-logistika tizimi mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda hududlar iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan strategik tarmoqlardan biri ekanligini alohida ta'kidlab, transport koridorlaridan samarali foydalanish, logistika markazlarini kengaytirish va sohani raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi [2].

Mazkur yo'nalishda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori bilan 2030-yilgacha transport-logistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu hujjatda tashqi savdo yoʻnalishlarini diversifikatsiya qilish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish, 3PL va undan yuqori darajadagi logistika xizmatlarini kengaytirish, transport xarajatlarini kamaytirish hamda yuklarni tashqi bozorlarga yetkazib berish muddatlarini qisqartirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Jahon miqyosida ham xalqaro transport koridorlariga investitsiyalar hajmi jadal surʼatlarda ortib bormoqda. Xitoy va Yevropa oʻrtasidagi yillik oʻzaro savdo hajmi 800 milliard AQSH dollaridan ortiqni tashkil etadi, yuk tashish hajmi esa 120–150 million tonnaga yetadi. Ekspertlarning baholashicha, Oʻzbekiston qoʻshimcha 15–20 million tonna xalqaro tranzit yuklarini jalb eta olsa, mamlakat iqtisodiyotiga yiliga 400–600 million AQSH dollari miqdorida qoʻshimcha daromad keltirishi, logistika markazlari va terminallarni rivojlantirish uchun 3 milliard AQSH dollarigacha xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi hamda 50 mingga yaqin yangi ish oʻrinlarini yaratishi mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiy oʻsishini 1,5–2 foiz bandga tezlashtirish imkonini beradi [2].

Biroq mavjud salohiyatga qaramay, Oʻzbekistonning xalqaro tranzit bozoridagi ulushi hozirgi kunda 1–2 foizdan oshmaydi. 2025-yilda tranzit yuklari hajmi 15,3 million *tonnani* tashkil etgan boʻlib, bu 2021-yilga nisbatan 54 foizga koʻp boʻlsa-da, mamlakatning geografik joylashuvi va transport infratuzilmasi imkoniyatlari bundan ancha yuqori natijalarga erishish imkonini beradi³. Shu sababli transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli platformalarni joriy etish, sunʼiy intellekt, Big Data, IoT va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, bojxona va chegara nazoratini raqamlashtirish hamda multimodal logistika tizimlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Sharq–Gʻarb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion mexanizmlarni ilmiy asoslash, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishning zamonaviy

yoʻnalishlarini tahlil qilish hamda Oʻzbekistonning xalqaro tranzit tizimidagi raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Soʻnggi yillarda xalqaro transport koridorlari, geoiqtisodiyot va logistika infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, global taʼminot zanjirlarining transformatsiyasi, geosiyosiy vaziyatning oʻzgarishi va xalqaro savdo oqimlarining yangi yoʻnalishlarga siljishi Sharq–Gʻarb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Shu bois mazkur yoʻnalish boʻyicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tranzit salohiyatini oshirish, raqamlashtirish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Geoiqtisodiyot nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga Edward Luttwak geoiqtisodiyotni davlatlarning iqtisodiy vositalar orqali strategik manfaatlarini amalga oshirish mexanizmi sifatida izohlab, transport koridorlari va logistika infratuzilmasining geosiyosiy hamda geoiqtisodiy ustunlikni taʼminlashdagi rolini asoslab bergan [3]. Keyinchalik Parag Khanna global infratuzilmalar, transport tarmoqlari va logistika yoʻlaklari XXI asr iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri ekanligini taʼkidlab, davlatlar oʻrtasidagi raqobat tobora hududlar emas, balki transport va logistika tarmoqlari orqali kechayotganini qayd etadi [4].

Transport iqtisodiyoti va logistika sohasidagi tadqiqotlarda Martin Christopher logistika tizimlarini taʼminot zanjirining strategik elementi sifatida baholab, raqamlashtirish, integratsiyalashgan boshqaruv va xizmatlar sifatini oshirish korxonalar hamda davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan [5]. Donald Waters esa logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va multimodal transport tizimlarini rivojlantirish yuk tashish xarajatlarini kamaytirish hamda tranzit vaqtini qisqartirishga xizmat qilishini taʼkidlaydi [6].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham transport koridorlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligiga alohida eʼtibor qaratilgan.

Jahon banki (World Bank) ma'lumotlariga ko'ra, transport va logistika tizimlarini raqamlashtirish hamda chegara jarayonlarini soddalashtirish yuklarni yetkazib berish muddatini o'rtacha 25–30 foizga, logistika xarajatlarini esa 10–15 foizga kamaytirishi mumkin [7]. Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tadqiqotlarida Markaziy Osiyodagi transport koridorlarini rivojlantirish mintaqaviy savdo hajmini sezilarli darajada oshirish va davlatlarning eksport salohiyatini kuchaytirishning muhim omili sifatida baholanadi [8]. Shuningdek, BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (UNESCAP) multimodal transport, raqamli tranzit hujjatlari va “yagona oyna” (Single Window) tizimlarini joriy etish transport koridorlari samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari ekanligini qayd etadi [9].

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham O'zbekistonning xalqaro transport tizimidagi o'rni va tranzit salohiyatini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, A.Vahobov, Q.Abdurahmonov, B.Berkinov va boshqa iqtisodchi olimlar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish, transport xizmatlari eksportini kengaytirish hamda mamlakatning xalqaro transport koridorlaridagi ishtirokini kuchaytirish bo'yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqqanlar [10]. Ularning tadqiqotlarida transport infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish va logistika xizmatlari sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishning iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sharq–G'arb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy salohiyatini sun'iy intellekt, Big Data, IoT, blokcheyn, raqamli logistika platformalari va aqlli transport tizimlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish, shuningdek, ushbu innovatsion texnologiyalarni O'zbekiston sharoitida qo'llashning iqtisodiy mexanizmlarini kompleks baholash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, transport-logistika infratuzilmasini raqamli transformatsiya qilish orqali koridorning geoiqtisodiy

samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Mazkur tadqiqotda Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy salohiyatini oshirishning innovatsion mexanizmlarini ilmiy asoslash va amaliy jihatdan baholashga qaratilgan zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli (system approach), institutsional, qiyosiy (comparative analysis) va iqtisodiy-statistik yondashuvlar uyg‘unligiga asoslandi.

Tadqiqotning nazariy asosini geoiqtisodiyot, transport iqtisodiyoti, logistika, xalqaro savdo va ta‘minot zanjirlari boshqaruvi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, Jahon banki (World Bank), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), BMTning Osiyo va Tinch okeani bo‘yicha Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (UNESCAP), Xalqaro transport forumi (ITF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tizimli tahlil (System Analysis) – Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining transport-logistika infratuzilmasi, tranzit jarayonlari, bojxona tizimi va raqamli platformalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks baholash uchun qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil (Comparative Analysis) – O‘zbekistonning transport-logistika ko‘rsatkichlari Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagi (TITR), TRACECA, CAREC va boshqa xalqaro transport koridorlari tajribasi bilan taqqoslandi.

Iqtisodiy-statistik tahlil – transport xizmatlari hajmi, tranzit yuk oqimlari, logistika xarajatlari, eksport-import ko‘rsatkichlari, investitsiyalar va infratuzilma rivojlanishi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar tahlil qilindi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Transport vazirligi, Jahon banki, ADB va UNESCAP ma‘lumotlaridan foydalanildi.

SWOT tahlili – Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tashqi tahdidlari baholandi. Mazkur usul koridorning raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlash imkonini berdi.

PESTLE tahlili – transport koridorining rivojlanishiga ta’sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillar kompleks baholandi.

Ekspert baholash usuli – transport, logistika va xalqaro savdo sohasidagi mutaxassislarning ilmiy qarashlari umumlashtirilib, koridorni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlandi.

Grafik va jadval tahlili – statistik ma’lumotlarni vizuallashtirish hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida diagrammalar, grafiklar va taqqoslovchi jadvallardan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqotda logistika jarayonlarining raqamlashtirish samaradorligini baholash maqsadida Logistics Performance Index (LPI), Liner Shipping Connectivity Index (LSCI), Doing Business (Trading Across Borders), Global Innovation Index (GII) va Global Competitiveness Index (GCI) kabi xalqaro reyting va indikatorlar tahlil qilindi. Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning xalqaro transport-logistika tizimidagi o‘rnini baholash hamda rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida ilmiy abstraksiyalash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy salohiyatini oshirish, logistika xizmatlari sifatini yaxshilash, multimodal tashuvlarni rivojlantirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda sun’iy intellekt, Big Data, IoT va blokcheyn texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, ishonchliligini va amaliy ahamiyatini ta’minlaydi hamda O‘zbekistonning xalqaro transport koridorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha samarali qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

1. Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining geoiqtisodiy ahamiyatini baholash.

Bugungi kunda Sharq–G‘arb xalqaro transport koridori Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi eng muhim multimodal transport yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur koridor xalqaro savdo hajmining ortishi, ta‘minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish va geosiyosiy xavflarni kamaytirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. O‘zbekistonning geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi ushbu koridorning ajralmas bo‘g‘ini sifatida mamlakatning tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini bermiqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona tizimini raqamlashtirish, multimodal tashuvlarni kengaytirish hamda logistika markazlarini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar xalqaro yuk oqimlarining o‘shishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Prezident tashabbusi bilan logistika markazlarini modernizatsiya qilish va xalqaro transport koridorlariga integratsiyalashuvni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekiston transport-logistika tizimining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020–2025-yillar)ni ko‘rishimiz mumkun.

1-jadval

**O‘zbekiston transport-logistika tizimining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi
(2020–2025-yillar)**

№	Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	Tranzit yuklari hajmi (mln tonna)	9,8	9,9	11,4	12,8	14,2	15,3
2	Transport xizmatlari eksporti (mlrd AQSH dollari)	0,37	0,42	1,61	2,14	3,49	4,40
3	Logistika markazlari soni	18	21	24	28	31	35
4	Xalqaro transport yo‘nalishlari soni	14	15	17	18	20	22

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Milliy statistika qo‘mitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida tranzit yuklari hajmi 9,8 mln tonnadan 15,3 mln tonnagacha oshgan, ya'ni 56,1 foizlik o'sish kuzatilgan.

Transport xizmatlari eksporti esa 370 mln AQSH dollaridan 4,4 mlrd AQSH dollarigacha ko'payib, qariyb 12 baravar oshgan, bu O'zbekistonning xalqaro logistika xizmatlari bozoridagi mavqei mustahkamlanayotganini anglatadi.

Shuningdek, logistika markazlari sonining 18 tadan 35 taga yetishi transport infratuzilmasiga investitsiyalar hajmi ortayotganligini ko'rsatmoqda.

2. Sharq–G'arb transport koridorining iqtisodiy samaradorligini baholash.

Transport koridorlarining iqtisodiy samaradorligi asosan quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

- tranzit vaqti;
- logistika xarajatlari;
- yuk oqimlari hajmi;
- bojxona rasmiylashtiruv tezligi;
- transport infratuzilmasining sifati.

Quyidagi 2-jadvalda Sharq–G'arb koridori va dengiz transportining qiyosiy ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkun.

2-jadval

Sharq–G'arb koridori va dengiz transportining qiyosiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich	Dengiz transporti	Sharq–G'arb koridori
1	Masofa (km)	20 000	8 000
2	Yetkazish muddati	40 kun	18 kun
3	O'rtacha tashish qiymati (1 TEU)	4 200 AQSH dollari	5 100 AQSH dollari
4	Yuk kuzatuv	Qisman	To'liq raqamli
5	Bojxona hujjatlari	Ko'p bosqichli	Elektron

Koridor orqali yuk tashish qiymati dengiz transportiga nisbatan biroz yuqori bo'lsa-da, yetkazib berish muddati qariyb 55 foizga qisqaradi.

Xalqaro savdoda aynan vaqt omili ko‘plab mahsulotlar uchun xarajatlardan ustun turadi. Shu sababli avtomobilsozlik, farmatsevtika, elektronika va oziq-ovqat sanoatida Sharq–G‘arb transport koridoriga talab yildan-yilga ortib bormoqda.

3. Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi.

Transport-logistika tizimida raqamlashtirish logistika xarajatlarini kamaytiruvchi asosiy omillardan biridir.

Quyidagi 3-jadvalda raqamlashtirish natijasida iqtisodiy samaradorlikni ko‘rishimiz mumkun.

3-jadval

Raqamlashtirish natijasida iqtisodiy samaradorlik

№	Ko'rsatkich	Raqamlashtirishdan oldin	Raqamlashtirishdan keyin
1	Bojxona rasmiylashtiruvi	24 soat	8 soat
2	Hujjatlar soni	12 ta	4 ta
3	Logistika xarajati	100 %	88 %
4	Yukni kuzatish aniqligi	72 %	96 %
5	Tranzit vaqti	100 %	78 %

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki:

- bojxona rasmiylashtiruvi 66 foizga qisqaradi;
- hujjatlar soni 3 baravar kamayadi;
- logistika xarajatlari 12 foizga pasayadi;
- yuk monitoringining aniqligi 24 foiz punktga yaxshilanadi.

Bu esa transport koridorining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

4. *SWOT tahlili*. Quyidagi 4-jadvalda Sharq–G‘arb xalqaro transport koridorining SWOT tahlilini ko‘rib chiqishimiz mumkun.

4-jadva

Sharq-G‘arb xalqaro transport koridorining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
– Geografik joylashuv – Temir yo‘l tarmog‘i	- Dengiz portlariga chiqish yo'qligi - Ayrim infratuzilmaning eskirganligi

– Hukumat qo‘llab-quvvatlashi - Tranzit salohiyati	– Chegaradagi ayrim byurokratik jarayonlar – Logistika xizmatlari sifati yetarli emas
Imkoniyatlar	Tahdidlar
– Xitoy–Yevropa savdosining o‘sishi – AI va IoT texnologiyalari – Xorijiy investitsiyalar – Yangi logistika markazlari	– Geosiyosiy beqarorlik – Muqobil transport yo‘llari – Tariflar o‘zgarishi – Global iqtisodiy inqiroz

SWOT natijalari. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning eng katta ustunligi uning geografik joylashuvi hisoblanadi. Eng muhim muammo esa ayrim logistika xizmatlarining xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmasligidir.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi innovatsion mexanizmlar taklif etiladi:

- sun‘iy intellekt asosidagi Smart Logistics Platformni yaratish;
- blokcheyn texnologiyasi asosida elektron tranzit hujjatlarini joriy etish;
- AI yordamida yuk oqimlarini prognozlash tizimini ishlab chiqish;
- IoT sensorlari orqali real vaqt monitoringini tashkil etish;
- “Yagona raqamli transport platformasi”ni yaratish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida multimodal logistika markazlarini rivojlantirish;
- elektron bojxona (“Digital Customs”) tizimini to‘liq joriy etish.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

O‘zbekistonning tranzit salohiyati oxirgi besh yilda sezilarli darajada oshgan; Sharq–G‘arb xalqaro transport koridori mamlakat eksporti va tranzit daromadlarini ko‘paytirishda muhim omil hisoblanadi;

raqamlashtirish logistika xarajatlarini 10–15 %, tranzit vaqtini 20–30 % kamaytirish imkonini beradi;

sun‘iy intellekt, Big Data, IoT va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish transport-logistika tizimining samaradorligini oshiradi;

zamonaviy logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geoiqtisodiy mavqei yanada mustahkamlanadi;

mazkur natijalar transport siyosatini takomillashtirish, xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish hamda logistika infratuzilmasini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Sharq–G'arb xalqaro transport koridori O'zbekistonning geoiqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro tranzit xizmatlarini rivojlantirish hamda tashqi savdo aloqalarini diversifikatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega. Mamlakatning qulay geografik joylashuvi, rivojlanayotgan transport-logistika infratuzilmasi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu koridorning samaradorligini oshirish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Tahlillar natijasida 2020–2025-yillar davomida tranzit yuklari hajmi 56,1 foizga, transport xizmatlari eksporti esa qariyb 12 baravarga oshgani aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning xalqaro transport-logistika tizimidagi mavqei mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, logistika xizmatlari sifati, bojxona rasmiylashtiruvi tezligi, multimodal tashuvlarni tashkil etish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligi ham tadqiqot davomida aniqlandi.

Tadqiqot davomida logistika jarayonlarini raqamlashtirish bojxona rasmiylashtiruvi vaqtini 66 foizgacha qisqartirishi, logistika xarajatlarini 10–15 foizga kamaytirishi hamda yuk oqimlarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi asoslandi. Shuningdek, sun'iy intellekt, Big Data, IoT va blokcheyn texnologiyalarini transport-logistika tizimiga integratsiya qilish koridorning raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi muhim innovatsion mexanizm ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

SWOT tahlili natijalari O'zbekistonning asosiy ustunligi uning geografik joylashuvi va rivojlanayotgan transport infratuzilmasi ekanligini, asosiy muammolar esa logistika xizmatlari sifati, ayrim chegara punktlarining

o'tkazuvchanlik darajasi hamda raqamli integratsiyaning yetarli emasligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bois transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish geoiqtisodiy salohiyatni yanada oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Yagona milliy raqamli logistika platformasini yaratish orqali transport operatorlari, bojxona organlari, logistika markazlari va yuk jo'natuvchilar o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish.

2. Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida yuk oqimlarini prognozlash hamda transport marshrutlarini optimallashtirish tizimini joriy etish.

3. Blokcheyn texnologiyasi asosida elektron yuk hujjatlari (e-CMR, e-Bill of Lading) va tranzit operatsiyalarini boshqarish tizimini bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish.

4. Multimodal logistika markazlari va "quruq portlar" tarmog'ini kengaytirish, ularni xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyalash orqali tranzit xizmatlari hajmini oshirish.

5. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari asosida transport-logistika infratuzilmasiga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

6. Chegara bojxona postlarida "Yagona oyna" (Single Window) va "Raqamli bojxona" (Digital Customs) tizimlarini to'liq joriy etish orqali rasmiylashtirish muddatlarini sezilarli qisqartirish.

7. Transport-logistika sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy logistika menejmenti, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.

8. Sharq-G'arb xalqaro transport koridori ishtirokchi davlatlari bilan bojxona, tarif va transport siyosatini uyg'unlashtirish, elektron ma'lumot almashish tizimlarini rivojlantirish hamda logistika xizmatlari standartlarini unifikatsiya qilish.

Mazkur takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kelgusida O'zbekistonning xalqaro transport koridorlaridagi raqobatbardoshligini oshiradi,

tranzit daromadlarini ko‘paytiradi, logistika xarajatlarini kamaytirib, mamlakatning Markaziy Osiyodagi geoiqtisodiy markaz sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari transport-logistika siyosatini takomillashtirish, strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish hamda ushbu yo‘nalishdagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning transport va logistika tizimini rivojlantirish bo‘yicha taqdimotdagi nutqi, 2026-yil 1-iyul. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi: transport va logistika tizimini rivojlantirish bo‘yicha taqdimot materiallari (2026). Lex.uz.
4. Luttwak E.N. From Geopolitics to Geo-Economics: Logic of Conflict, Grammar of Commerce. The National Interest, No. 20 (Summer 1990), pp. 17-23. Ilmiy maqola. The National Interest. The National Interest, Washington, D.C., USA.
5. Khanna P. Connectography: Mapping the Future of Global Civilization. New York: Random House. 496 p. Ilmiy monografiya. Random House, New York, USA. ISBN: 978-0399561330.
6. Christopher M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. 5th Edition. Harlow, England: Pearson Education Limited. 328 p. Darslik (ilmiy-o‘quv adabiyot). Pearson Education Limited. ISBN: 978-1292083790.
7. Waters D. (2011). Supply Chain Risk Management: Vulnerability and Resilience in Logistics. 2nd Edition. London: Kogan Page Limited. 384 p. Monografiya. Kogan Page Limited. ISBN: 978-0749463932.

8. World Bank. (2023). Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy - The Logistics Performance Index and Its Indicators. Washington, DC: World Bank. Xalqaro tashkilot hisoboti (Analytical Report). World Bank Publications. 80 p. (nashriga qarab farq qilishi mumkin). ISBN: 978-1-4648-2042-1.

9. Asian Development Bank (ADB). (2020). CAREC Transport Strategy 2030. Manila, Philippines: Asian Development Bank. 76 p. Strategik hisobot. Asian Development Bank. ISBN: 978-9292625521.

10. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (UNESCAP). (2023). Digital and Sustainable Transport Connectivity in Asia and the Pacific. Bangkok, Thailand: United Nations Publications. BMT hisobotlari (Research Report). United Nations ESCAP.

11. Abdurahmonov Q.X. Mintaqaviy iqtisodiyot: darslik – Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2021. – 456 b.

12. Vahobov A.V. Milliy iqtisodiyot: darslik – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 512 b.